

## XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

**Kazaxbaev Erkinbay Sarsen uli**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi moliya-iqtisod bo'lim  
boshlig'i

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tel: +998 (90) 660-12-90

E mail: erkinkazaxbaev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18667047>

### **Annotatsiya**

Maqolada xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyat ko'p jihatdan kompleks yondashuvga, jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va institutsional omillarga bog'liq bo'lganligi, shuningdek, ushbu sohada turli mamlakatlar tajribasida o'ziga xos davlat dasturlari va strategiyalar joriy etilgan. Quyida ushbu sohada amalga oshirilgan rivojlangan mamlakatlarning tajribasini ilimiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkor, kompleks, ta'lim, biznes, ferma, bank, axborot, texnologiya, innovatsiya.

### **Annotation**

The article notes that foreign experience in the development of women's entrepreneurship in the service sector shows that success largely depends on a comprehensive approach, including social, economic, technological, and institutional factors, as well as the implementation of specific state programs and strategies in this area in the experience of different countries. Below is a scientific analysis of the experience of developed countries in this area.

**Keywords:** entrepreneur, complex, education, business, farm, bank, information, technology, innovation.

### **Аннотация:**

В статье отмечается, что зарубежный опыт развития женского предпринимательства в сфере услуг показывает, что успех во многом зависит от комплексного подхода, включая социальные, экономические, технологические и институциональные факторы, а также специфические государственные программы и стратегии, внедренные в различных странах. Ниже представлен научный анализ опыта развитых стран в этой области.

**Ключевые слова:** предприниматель, комплекс, образование, бизнес, ферма, банк, информация, технология, инновация.

Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha AQSh tajribasi eng muhim va muvaffaqiyatli tajribalardan biri bo'lib, 20-asrning boshlarida xotin-qizlar tadbirkorligi faoliyatida, ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash va savdo kabi xizmat ko'rsatish sohalarida faol ishtirok etishdi. Ushbu mamlakatda 1970-80-yillarda teng huquqlilik harakati va qonunchilikdagi o'zgarishlar xotin-qizlar tadbirkorligi faoliyatiga keskin turtki bo'ldi. Jumladan, AQShda xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun 1988 yilda qabul qilingan "Women's Business Ownership Act" qonuni [1] xotin-qizlar uchun biznes kreditlari va boshqa moliyaviy yordamlardan foydalanish imkoniyatini yaxshilashga yordam berdi.

1990-2000 yillarda AQShda xizmat ko'rsatish sohasida ayollar tadbirkorligini rivojlanishi muhim o'zgarishlar va yutuqlar bilan tavsiflanadi. Bu davrda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlar sonining ko'payishi va ularning mamlakat iqtisodiyotidagi rolining kuchayishi bilan ajralib turdi. Xotin-qizlar kichik va o'rta korxonalarni, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasini faol tashkil etish va rivojlantirishga kirishdilar. 1990 yil holatiga ko'ra, AQShda 5,4 mln. ayollarga tegishli firmalar mavjud bo'lib, ularda 11 milliondan ortiq xodim ishlagan va 500 ta eng yirik korporatsiyalar ishchi kuchining 90 foizini tashkil etgan. 1995-yillarda ayollarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari yaxshilandi. Banklar va venchur fondlari tadbirkor ayollarga ko'proq e'tibor bera boshladilar, bu esa muvaffaqiyatli bizneslar sonining ko'payishiga yordam berdi [2].

1997-2002 yillarda AQSH biznesidagi ayollar soni ikki baravar oshdi. 2002-yilda tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadning 939 mlrd. dollardan ko'proq qismi va yangi tashkil etilgan korxonalar sonining 6,5 mln.tasi ayollarga tegishli bo'lib, mos ravishda 1997-yilga nisbatan ushbu ko'rsatkichlar 15 va 20 foizga oshgan[3]. 2005-2015-yillar davomida xotin-qizlar sog'liqni saqlash, ta'lim, axborot texnologiyalari va moliyaviy xizmatlar kabi sohalarda faol tadbirkorlik faoliyatini boshladi. 2015-yilga kelib, ayollar Qo'shma Shtatlarda taxminan 9,4 million biznesga egalik qilishgan, bu mamlakatdagi barcha xususiy kompaniyalarning taxminan 30 foizini tashkil qildi[4].

2015-2020 yillar davomida AQShda xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga quyidagi innovatsiyalar va texnologiyalar katta yordam berdi:

- 1. Raqamli platformalar va ijtimoiy media:** Facebook, Instagram va LinkedIn kabi platformalar ayollarga o'z xizmatlarini samarali reklama qilish va mijozlarni jalb qilish imkonini berdi. Shuningdek, bu platformalar, boshqa tadbirkorlar bilan tarmoq hosil qilish va tajriba almashish imkoniyatini ham taqdim etdi.
- 2. Elektron tijorat:** Etsy va Shopify kabi elektron tijorat platformalari onlayn do'konlarni yaratishni soddalashtirdi. Bu ko'plab ayollarga o'z bizneslarini kengaytirish va yangi bozorlarni zabt etish imkonini berdi[5].
- 3. Moliyaviy texnologiyalar (FinTech):** FinTech rivojlanishi moliyaviy resurslarga kirishni yaxshiladi. Kickstarter va Indiegogo kabi kraudfanding platformalari, shuningdek, PayPal va Square kabi raqamli bank va to'lov tizimlari ayollarga kapital jalb qilish va moliyaviy boshqaruvni yangi usullarini taqdim etdi[6].
- 4. Bulutli texnologiyalar:** Google Workspace va Microsoft Office 365 kabi bulutli xizmatlar dunyoning istalgan nuqtasidan biznesni boshqarish va hamkorlik qilish uchun qulay vositalarni taqdim etdi. Ushbu texnologiyalar ish samaradorligini va moslashuvchanligini oshirdi [7].
- 5. Onlayn ta'lim va treninglar:** Coursera, Udemy va LinkedIn Learning kabi onlayn ta'lim platformalari tadbirkorlik, marketing, biznes boshqaruvi va boshqa muhim ko'nikmalar bo'yicha kurslar va treninglarni taklif etdi. Bu ayollarga doimiy ravishda malakasini oshirish va bozor sharoitlariga moslashishga yordam berdi[8].
- 6. Avtomatlashtirish va sun'iy intellekt:** Avtomatlashtirilgan tizimlar va sun'iy intellekt asosidagi yechimlar mijozlar ma'lumotlarini boshqarish, marketing kampaniyalari va mijozlarga xizmat ko'rsatish kabi operatsion jarayonlarni yaxshiladi. Bu ayollarga bizneslarining strategik jihatlariga e'tibor qaratishga imkon berdi[9].

Ushbu innovatsiyalar va texnologiyalar AQShda tadbirkor ayollarga, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida biznesning o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Natijada, 2022-yilda yangi biznes faoliyatining taxminan 47 foizini ayollar boshlagan, bu ko'rsatkich 2019-yilda 28 foizni tashkil etgan[10]. Xotin-qizlarga qarashli firmalar qariyb 1,8 trillion AQSh dollar savdo aylanmasiga erishgan va 10,1 milliondan ortiq ishchilar bandligi ta'minlangan[11]. Shuningdek, tadbirkor ayollar ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalar va barqaror amaliyotlar orqali katta hissa qo'shib, ularning bizneslari ko'pincha ijtimoiy va ekologik maqsadlarga yo'naltirilgan [12].

Hozirgi zamonaviy sharoitda AQShda xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligi uchun maxsus moliyaviy dasturlar yaratilgan va ularga "Small business administration (SBA)" [13], "SBA Women-Owned Small Business (WOSB) Federal Contracting Program" [14] dasturlari kredit va grant dasturlarini taqdim etib, federal hukumatning kontrakt-shartnomalaridan foydalanish imkoniyatini yaratib kelmoqda. Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun treninglar va ta'lim dasturlari katta ahamiyatga ega bo'lib, jumladan, "Women's Business Centers" (WBCs) [15] tarmog'i butun mamlakat bo'ylab xotin-qizlarga biznesni boshlash va rivojlantirish bo'yicha maslahatlar va treninglarni taqdim etadi. Ushbu markazlar xotin-qizlarga biznes rejalashtirish, moliya boshqaruvi, marketing va boshqa sohalarda yordam beradi. Undan tashqari, murabbiylik dasturlari va tarmoqlari xotin-qizlar tadbirkorligida muhim o'rin tutadi. Masalan, "SCORE business mentoring, and financial assistance programs" [16] tashkiloti tajribali biznes maslahatchilari orqali xotin-qizlarga bepul maslahatlar va murabbiylik xizmatlarini taqdim etadi.

AQShda xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun qator maxsus tashkilotlar faoliyat yuritadi. Masalan, "National Association of Women Business Owners" (NAWBO) [17] tashkiloti xotin-qizlar tadbirkorlari uchun resurslar, tarmoq va qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini yaratadi.

### References:

1. <https://www.congress.gov/bill/100th-congress/house-bill/5050>
2. Strikland M., Bur S. The importance of local, state, and federal programs for women entrepreneurs // Econ. development quart. -Thousand Oaks (Cal.), 1995. - Vol.9, N 1. - P.87-90.
3. <http://www.newsinfo.ru/news/2006/01/news1249363.php>
4. [https://smallbusiness.house.gov/uploadedfiles/3-30-17\\_yancey\\_testimony.pdf](https://smallbusiness.house.gov/uploadedfiles/3-30-17_yancey_testimony.pdf)
5. <https://cedcommerce.com/blog/etsy-women-entrepreneur-outstanding-performance/>
6. M.S. Baucus *et al.* Crowdfunding: Avoiding Ponzi entrepreneurs when investing in new ventures. Business Horizons (2016).
7. <https://www.joinsecret.com/compare/google-workspace-vs-microsoft-365>
8. <https://www.linkedin.com/advice/1/heres-how-you-can-expand-your-professional-network-ij1ke>
9. <https://seepnetwork.org/Blog-Post/Using-Artificial-Intelligence-and-Technology-for-Women-s-Economic-Empowerment-Can-It-Work>
10. <https://www.weforum.org/agenda/2023/04/women-entrepreneurship-business-growth-jobs/>

11. <https://www.census.gov/library/stories/2021/03/women-business-ownership-in-america-on-rise.html>
12. <https://she.work/women-entrepreneurs-challenges-strengths-impact/>
13. <https://www.sba.gov/>
14. <https://info.winvale.com/blog/women-owned-small-business-set-aside-program>
15. <https://www.sba.gov/local-assistance/resource-partners/womens-business-centers>
16. <https://www.score.org/find-mentor>
17. <https://nawbo.org/expert-reviews/>.